

**FANNI ELEKTRON KURS ORQALI O'RGANISHDA TALABALARNING O'QUV
YUTUQLARINI ANIQLASHNI TASHKIL ETISH.**

**Hasanova Dilafro'z Bo'ronovna
Xatamov Umidjon Ismatilloevich**

Baholash murakkab jarayon bo'lib, ta'lim va ta'lim natijalarining sifati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot to'plashdir. Umuman olganda o'qituvchi, talaba va otanalar o'rtasida ta'lim jarayonining muvaffaqiyati to'g'risida nazorat va diagnostika aloqani amalga oshirish mexanizmidir.

Baholash funksiyasi tarbiyaviy, oriyentatsiya, diagnostika, rag'batlantiruvchi, o'qitish metodikasi samaradorligini tekshirish hisoblanadi. Talabalarning yetarli darajada shakllanishi, o'zini-o'zi hurmat qilish, o'quv faoliyati uchun kuchli motiv va sinfdagi shaxslararo munosabatlarda baholash tizimi alohida o'rin egallaydi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning an'anaviy tizimi tashkiliy va texnologik jihatdan endi zamonaviy muammolarni hal qila olmaydi. Baholash muammosiga yangicha yondashuv, o'quvchilarning ta'lim yutuqlari natijasi ularning shaxsiy rivojlanish dinamikasini hisobga olish zarurligini e'tirof etishdan, ularning asosiy meta-predmet ko'nikmalarini shakllantirishdan kelib chiqadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki elektron ta'lim jarayonini munosib baholash yanada optimal variantlarni ko'rib chiqish talab qilinadi. Elektron ta'lim resursi elektron raqamli shaklda taqdim etilgan va tuzilishi, mavzu va mazmuni va ular haqidagi metama'lumotlarni o'z ichiga olgan ta'lim resursi. Zo'r o'quv jarayonida foydalanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, dasturiy ta'minotni o'z ichiga olishi mumkin hamda shunga munosib nazorat va natijalarni baholovchi tizimlar bo'lishi maqsadga muvofiq va elektron o'quv jarayonida quyidagi nazorat va baholash tizimlarini ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy ta'limda eng dolzarb narsa bu test kabi nazorat usulidir. Ta'lim jarayonini tashkil etishning bu usuli zamonaviy axborotni qayta ishlash tizimida qulay va oson baholanadi. Elektron test bir qator afzalliklarga ega: bu testni avtomatlashtirish imkoniyati tufayli nazoratning chastotasi va muntazamliligini oshirish, shuningdek, dasturiy ta'minotni o'qitishni farqlashning moslashuvchanligini ta'minlash, individuallashtirish tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy test sinov turlari:

Yopiq turdagi test topshiriqlari: har bir savoldan keyin tayyor javob variantlari keladi va shulardan bitta yoki bir nechtasini tanlash kerak. Qisqa savol-javoblar, munosabat o'rnatadigan mulohazalar va h.k.

Ochiq test sinov turlari:

Ochiq turdagi test topshiriqlari har bir savol uchun siz taklif qilishingiz kerak bo'lgan javoblar, test ideifikatsiyasi, test farqi, sinov nisbati, almashtirish testi, konstruktiv test va h.k.

Elektron testlarning interaktivligi xolislikni oshirish imkonini beradi. Test tizimining faol rejimda foydalanuvchining har qanday harakatlariga faol va adekvat javob berish qobiliyati masalan, maslahat olish yoki urinishlar soni talabalar bilimini oshirish va rag'batlantirish xususiyatli baholash tizimi hisoblanadi.

Ikkinchi taqdim qilmoqchi bo'lgan nazorat usuli mozaika shaklidagi savol-javob usulidir. Bunda o'quvchi har bir savol yoki fikrni mantiqan to'ldirish, davom ettirish orqali (bu holatda javob variantlarini tanlash yoki o'zi kiritishi mumkin) berilgan mavzu yoki ma'lumot orqali qay darajada o'rganilganligini aniqlash mumkin.

Uchinchi nazorat usuli grafik va matnlardan foydalanilgan holda mavzuni eng asosiy tushunchalarini yozish usuli hisoblanadi. Bunda kam hajmdagi savol-javoblardan foydalanish samara berib, berilgan javoblar orqali o'quvchining nafaqat bilim olganligi, uni ifodalay olishini ham bilish mumkin. Barcha usullar qachonki o'z samarasini ko'rsatadi, qachonki o'quvchining tayyor materiallardan foydalanib yoki boshqa kishilar tomonidan nazorat topshirish holatlarini oldi olinsa. Bunda albatta eng avvalo audintifikatsiyaning eng samarali turidan foydalanib o'quvchini ro'yxatdan o'tqazish bo'lsa, keying o'rinlarda nazorat vaqtida dasturiy ta'minotning eng talabga javob beradigan tizimlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy o'rganish va baholash maqsadlari bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilishda ma'lumotlarni qayta ishlash va kontekstli talqin qilish orqali mumkin bo'lgan oqibatlarni amalga oshirish natijalarini bashorat qilish muhim hisoblanadi.

Uslubiy yondashuvlar, fikr bildirish, maqsadlar, kuzatilgan o'zgarishlar qanday va qay darajada bog'liqligini baholash; uslubiy chora-tadbirlar dalillar keltirish; keyingi amalga oshirish uchun ma'lumot berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola talabalarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish sharoitida elektron ta'lim resurslari imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv faoliyati natijalarini baholashning turli turlarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Taqdim etilgan ma'lumot tinglovchilarni o'quv faoliyati natijalarini baholashning umumiy yondashuvlari va baholashning ayrim turlari bilan tanishtiradi. O'quv faoliyati natijalarini baholashning turli usullari ko'rib chiqiladi. O'quv faoliyati natijalarini baholash uchun raqamli shaklda turli turdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. O'quv jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. Elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatining ahamiyatini oshiradi. An'anaviy va elektron ta'lim vositalaridan kompleks foydalanish yaxlit ta'lim traektoriyasini shakllantirishga yordam beradi va natijada kerakli natijaga erishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Barboux, M.-T. (2006) From Lifelong Learning to M-Learning. The 13th International Conference ALT-C 2006: The Next Generation, Edinburgh, Scotland, UK.

Vani Kalloo, H. and Permanand, M. (2012) Correlating Questionnaire Data with Actual Usage Data in a Mobile Learning Study for High School Mathematics, Electronic Journal of e-Learning, 10, 76-89.

Zoraini, W.A, Chng, L.P. and Norziati, M. (2009) A Study on Learner Readiness for Mobile Learning at Open University Malaysia. IADIS International Conference Mobile Learning, Barcelona, 26-28 February 2009, 151-157.

Hawkins, B.L. and Rudy, J.A. (2007) Educause Core Data Service: Fiscal Year 2006 Summary Report. Educause, Boulder, CO.
<http://media.clemson.edu/ccit/assessment/Core Data Survey Summary Report 2006.pdf>

Horton, W. (2005) Leading E-Learning. ASTD, p. 1.
<http://www.e-learningguru.com>

Fry, K. (2000) Forum Focus and Overview, the Business of E-Learning: Bringing Your Organization in the Knowledge Economy. Telcam Group, University of Technology, Sydney.

Dublin, L. (2003) If You Only Look under the Street Lamps... Or Nine E-Learning Myths. The E-Learning Developers Journal.
<http://www.eLearningguild.com>

Rossi, P.G. (2009) Learning Environment with Artificial Intelligence Elements. Journal of E-Learning and Knowledge Society, 5, 67-75.